

---

## Rishton tuman hokimi S. Solievning 1 iyun – “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” bayrami munosabati bilan bolalarga TABRIGI

Assalomu alaykum aziz tumandoshlar!

O‘zbek xalqi azal-azaldan bolajon xalqlardan hisoblanib, o‘z farzandining yorqin kelajagi uchun jonini ham ayamasi barchamizga ma‘lum. Shuning isboti sifatida yurtimizda bir qator bayramlar, an‘analar bolajonlar quvonchi uchun tashkil etiladi. Xoh sport sohasida bo‘lsin, xoh madaniyat sohasida bo‘lsin, jazzi bolajonlar o‘zlarining shirin tillari, murg‘ak qalbi bilan o‘z ijodlari orqali namoyon etib kelishmoqda. Jonajon yurtimizda kelajagimiz egalarining kamoliga har jihatdan yuksak e‘tibor qaratilib, ularga beqiyos g‘amxo‘rliklar ko‘rsatilib kelinmoqda. 1 iyun - "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" ana shunday e‘tiborning yorqin ifodasi sifatida keng nishonlanadi. Aslida o‘sib kelayotgan yosh avlodni himoya qilish zamirida hayotni uning davomiyligini asrab avaylash mohiyati yotadi. Ular to‘g‘risidagi har qanday g‘amxo‘rlik esa yurt ravnaqi uchun poydevor demakdir. Bugun ertamiz egalariga ko‘rsatilayotgan e‘tibor kelajakda ularning vatanga sadoqatli jismonan va manan barkamol bo‘lib yetishishida muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunda yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan pandemiyaga qaramasdan bolajonlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilishiga erishildi - desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Aziz do‘stlar, bolalar, yosh avlod!

Sizlarni Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni bilan chin qalbdan muborakbod etaman. Har birimiz uchun eng yorqin, eng pokiza va go‘zal xotiralar bevosita bolalik davri bilan bog‘liq. Ushbu davr har biringiz uchun butun dunyo chegarasiz, osmon esa cheksiz ko‘rinadigan bir davrdir, shuningdek, ushbu davr siz mo‘jizalarga chin dildan ishonadigan va har bir boshlanadigan yangi kundan zavqlanib yashaydigan vaqtingizdir. Vaqt o‘tgani sayin bolalik bilan bog‘liq hissiyotlar ma‘lum ma‘noda insondan uzoqlashishi mumkin, biroq biz hayotimiz davomida bolalik taassurotlarini har doim ich-ichimizdan his qilamiz. Shu sababli, ushbu bayram nafaqat yosh avlod uchun, balki yosh avlodni har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslar uchun ham ahamiyatlidir. Ushbu bayram bizning bolalar oldidagi mas‘uliyatimizni yanada oshirib, uning yashash, ta‘lim olish, dam olish va bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazish bilan bog‘liq huquqlarini ta‘minlash, ularni turli xil jismoniy va psixologik zo‘ravonliklardan, majburiy mehnatdan himoya qilish zarurligini eslatib turadi. Zero, bola huquqlarini ta‘minlash va kafolatlash insonparvar va adolatli jamiyatni shakllantirish uchun zarur shart-sharoit sifatida namoyon bo‘ladi. Bugungi jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifa – farzandlarimizni aqlli, odobli, bilimli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Ular ishonchli himoya ostida bo‘lishlari va o‘z hayotini muakkammal darajada yo‘lga qo‘yishlari uchun biz barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz lozim. Yurtimizda iqtidorli bolalar juda ko‘p. Aziz bolalarim bayram muborak bo‘lsin, barcha ishlaringizga omad va zafarlar, hayotingizga esa baxt, quvonch va sog‘lik tilab qolaman! Kattalarning e‘tibori va g‘amxo‘rligi, mehri va qaynoq tafti doimo hamrohingiz bo‘lsin. Yosh avlodning sog‘lom, baxtli bo‘lishi, ma‘naviy va axloqiy jihatdan rivojlanishi, shuningdek jamiyat uchun foydali inson bo‘lib voyaga yetishida o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan barchaga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

2022-06-01 17:40:24